

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

TOG'AY MUROD ASARLARIDAGI ZONIMIK KOMPONENTLI BIRIKMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

G.A.Tursinbayeva

O'zbekiston Milliy universiteti

Lingvistika (o'zbek tili) 2-bosqich magistranti

gtursinbaeva259@gmail.com

+998977888830

Annotatsiya: Jonvorlar obrazi orqali shakllangan frazeologizmlar o'zbek tilida hamda qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda ham keng miqyosda qo'llaniladi, shu bilan birga hayvonlarning u yoki bu o'ziga xos xususiyatlarini timsollashtirish orqali zoofrazeologik birliklar vujudga kelgan. Jonzotlarga xos bo'lgan jihatlarni ma'lum bir xalqning ijtimoiy va xo'jalik hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqona obrazlari hamda shu millatning urf-odatlarini, dunyoqarashlarida katta rolga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalq tomonidan hayvonlarga xos bo'lgan umumiy xislatlari o'zbek tili frazeologizmlarida salbiy yoki ijobiy mazmun tashish orqali tilda aks etdi.

Kalit so'zlar: zoonim komponentli birikmalar, proverbial birikmalar, struktur, semantik, paradigmatic aspektlar, komponent tahlil, lingvokulturologik tahlil, zoomorfizmlar metaforalar.

Аннотация: Фразеологизмы, образованные через образ животных, широко используются в узбекском языке, а также в родственных и неродственных языках, в то же время зоофразеологические единицы создавались путем символизации тех или иных специфических характеристик животных. Особенности, свойственные живому, определяются народными образами, имеющими важное значение в общественной и экономической жизни определенного народа, играющими большую роль в обычаях и мировоззрении этого народа. Общие характеристики животных у народа отразились в узбекской фразеологии путем передачи отрицательного или положительного содержания.

Ключевые слова: соединения компонентов зоонимов, пословичные соединения, структурные, семантические, парадигматические аспекты, компонентный анализ, лингвокультурный анализ, метафоры зооморфизмов.

Abstract: Phraseologisms formed through the image of animals are widely used in the Uzbek language and in related and non-related languages, at the same time, zoophraseological units have arisen by embodying one or another characteristic feature of animals. The aspects characteristic of animals are determined by their folk images, which are important in the social

and economic life of a particular people, and by their significant role in the traditions and worldview of this nation. The general features characteristic of animals by the people were reflected in the language by carrying negative or positive content in Uzbek phraseologisms.

Keywords: zoonymic component compounds, proverbial compounds, structural, semantic, paradigmatic aspects, component analysis, linguocultural analysis, metaphors with zoomorphism.

KIRISH. Frazelogik birliklar ma’lum bir xalqning ma’naviy-madaniy urf-odatlarini va qadriyatlarini, yashash tarzi, intilishi, voqelikka munosabati, o‘tmishi va kasb-kori bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun idiomatik birliklar turli xil aspektlarda tadqiq qilinadi, masalan, zoonimik jihatdan yoki fitonimik jihatdan o‘rganiladi. Bunda xalq orasida ishlatilayotgan proverbial va frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlar tahlilga tortilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilib izohlanadi. Ma’lumki, zoonimik komponentli birikmalar obrazlilik, emotsionalligi bilan izohlanib, og‘zaki nutqni va badiiy asarlarni boyitishda, ta’sirchanlik kuchini oshirishda zoonim komponentli frazemalar metaforalashtirilgan tarzda keng qo‘llaniladi. Tilshunoslikda zoonimlarni ifodalovchi leksika odatda ma’lum bir xalqning joylashuv o‘rniga qarab hayvon nomlariga aloqador idiomatik birikmalar vujudga keladi, ya’ni o‘zbek xalq maqollari va iborlari tarkibida hech ham begomot yoki fil kabi zoonimik komponentlar kuzatilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jahon tilshunosligida zoonim komponentli birliklar ilk bora E.A.Gutman va M.I.Cherevitsinlar [4] tomonidan rus va fransuz tillaridagi hayvon nomlarini qiyosiy tarzda o‘rganish bilan boshlab berilgan. Keyinchalik esa, zoonimik leksika turli olimlar tomonidan turli xil yo‘nalishlarda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish orqali rivojlangan. Jumladan, Y.L.Lyasova zoonimlar haqidagi ilmiy tadqiqotida zoonimlarni quyidagicha guruhlariga bo‘lib o‘rgangan:

- a) Uy hayvonlari
- b) Yovvoyi hayvonlar
- c) Qushva parrandalar
- d) Sudralib yuruvchilar kabi kichik guruhlariga bo‘lib o‘rgangan.

Shuningdek, tadqiqotchi o‘rgangan zoonimlar proverbial birikmalarda asosan ishlatilgan. Bizningcha, yuqoridagi tasniflanish biroz maqsadga muvofiq emas, chunki bu tasnif zoonimik birliklarning barchasini qamrab ola olmagan[116, 9].

O.J.Latipov nomzodlik dissertatsiyasida rus, o‘zbek va tojik tillaridagi uy hayvonlari nomlarining semantik qurilishini qiyosiy tahlil qilgan. U ilmiy ishida uch tildagi aynan bir xil hayvon nomlarini ifodalaydigan so‘zlarning uchta tildagi alohida ma’no xususiyatlarini izohlab bergan va shu shaklda ba’zi hayvon nomlarini uchta tilda ham bir xil shaklda va ma’noda kelishini ta’kidlagan[8].

Bugungi kungacha zoofrazeologik birliklar bo‘yicha izlanishlar o‘zbek tilshunosligida B.Abdushukurov [1], D.Rajabova [10], G‘.Ismoilov [6], D.Baxronova [2], Z.Jumayeva [7] va Z.Shirnazarovalar [18] tomonidan tadqiq etilgan.

B.Abdushukurovning “XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasida XI-XIV asrdagi turkiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan zoologik terminlarni jamlagan holda, tartibga solib hamda lingvistik asosda tahlil qilingan, shuningdek, zoonimlar genetik nuqtai nazardan o‘rganilgan. XI-XIV asr turkiy yozma yodgorliklarda qo‘llanilgan zoologik terminlarning qadimgi turkiy til (VI-X asr) va eski o‘zbek tili (XV-XIX asr) obidalari hamda hozirgi zamon turkiy tillari (o‘zbek va qisman turk) bilan o‘zaro munosabatlari qiyosiy-tarixiy aspektlarda o‘rganilgan [7, 1]. Qiyosiy va tarixiy tilshunoslik sohasida qilingan katta ishlardan biridir, bu orqali zoonimik birliklarning kelib chiqish tarixi va shakllanish bosqichlari haqida keng qamrovli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

G.Hakimovanning “Zoonimik komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari: ingliz tili materiallari asosida” nomzodlik dissertatsiyasida ingliz tilidagi zoonimik frazeologizmlarni struktur, semantik va paradigmatic aspektlarda komponent tahlilga tortilgan. Hamda frazeologik birliklar tarkibidagi zoonimik komponentlarni semantik va stilistik jihatdan tahlil qilinib, ular orasidagi polisemiya, sinonimiya, antonimiya kabi aloqalar o‘rganilgan va tasniflangan [6, 5].

Z.Shirnazarovanning ilmiy ishida zoofrazeologizmlarni yetti turga bo‘lib o‘rgangan. Ular quyidagilar:

1. **Uy hayvonlari:** it, mushuk, qo‘y, ot, ho‘kiz, sigir, echki, tuya, tovuq.
2. **Yovvoyi hayvonlar:** tulki, quyon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, sher, to‘ng‘iz.
3. **Sudralib yuruvchilar:** ilon, toshbaqa.
4. **Kemiruvchilar:** sichqon, olmaxon.
5. **Qushlar:** chumchuq, qarg‘a, bulbul, bedana, mayna, g‘oz, o‘rdak, tovus.
6. **Suvda yashovchilar:** baliq, qurbaqa.
7. **Hasharotlar:** pashsha, chivin, bit, burga, ari [26, 18].

Bizningcha, bu tasnif zoofrazeologizmlarni o‘rganishda eng maqbul usuldir. Chunki turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko‘rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi” [26, 18]. Shuni ham ta’kidlab aytish kerakki, hayvonlar obrazi inson tafakkurida ko‘p hollarda salbiy ma’no kasb etadi. Bunday ma’nolarni, asosan, o‘xshatish asosiga yaratilgan maqol, hikmatli so‘z va ko‘chma ma’nodagi proverbial frazemalarda uchratishimiz mumkin.

Dastavval, o‘zbek mentalitetida hayvonlarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari olinib, ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Masalan, tulki - ayyorlik va chaqqonlik; bo‘ri - ochko‘zlik va yirtqichlik; cho‘chqa – ochko‘zlik; ilon - makkorlik, hiylakorlik, razillik, qabihlik; ayiq - muruvvatlilik, qo‘pollik, beso‘naqaylik; maymun – nomustaqillik; arslon - kuchlilik, muruvvatlilik, oliyanoblik; qo‘y - yuvoshlik va nomustaqillik; chumoli – mehnatkashlik; eshak – ahmoqlik; it - vafodorlik ramzi sifatida shaxsning u yoki bu xakteri, xulq-atvorini

ifodalaganlar. Mazkur zoonimik leksemalar frazemalar tarkibida ishtirok etib, ularni ifodaviy va mazmunan shakllantiradi [152, 17].

Shuningdek, D.Baxronovanning ilmiy ishida zoomorfizmli metaforalar inson xarakter xususiyatlarini tasvirlash bo‘yicha quyidagicha mavzuviy guruhlariga ajratilgan: 1. Tashqi qiyofaga xos xususiyatlar; 2. Shaxsiy xarakterga xos xususiyatlar; 3. Insonning fiziologik xarakteristikasi; 4. Xulq-atvorga xos xususiyatlari; 5. Intellektual xususiyatlari; 6. Ijtimoiy xususiyatlari [172-173, 3]. Bu mavzuviy guruhlar orqali zoonim komponentli frazeologik birliklarni tasniflash tadqiqot jarayonini osonlashtiradi va qulaylashtiradi.

NATIJALAR. Tog‘ay Murod asarlarida zoonim komponentli frazemalardan keng foydalanilgan. Asosan, uy hayvonlariga oid bo‘lgan iboralar va proverbial iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, uy hayvonlariga oid bo‘lgan frazemalardan biri “it” jonivoriga aloqador bo‘lib, ko‘p hollarda ijobiylikdan ko‘ra salbiy ottenkasi kuchli bo‘lganligi uchun, negativ mazmun tashiydigan zookomponentli frazeologik birliklarni o‘zbek tilida ko‘p uchratishimiz mumkin. Shuningdek, ularni ikki turga ajratgan holatda tasnif qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Proverbial zoonimik komponentli birliklar: itdan bo‘lgan qurbonlikka yaramas [51, 16], otning o‘limi - itning bayrami [55, 15], kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi [7, 14], hayvonni qancha tarbiya qilma, it bo‘ladi, eshak bo‘ladi, aslo odam bo‘lmaydi [124, 14].

Zoofrazeologik birliklar: ichini it tirnadi [69, 12], it azobi bo‘ldi [23, 13], it yiqilish bo‘ldi [18, 16], itday talab boshladi [195, 15], og‘ziga urgan itday bo‘lib qoladi [301, 11], itga bitgan, bitga bitgan aql tishi ... demokratiyaga bitmaydimi?! [38, 15], it azobi bo‘ladi [50, 11], it egasini tanimaydi [73, 11], ichini it tataladi / tirnadi [16/44, 13], itning orqa oyog‘i [52, 13].

Yuqorida keltirilgan misollarda ko‘rishimiz mumkinki, itga xos bo‘lgan xislatlar iboraga ko‘chirish orqali obrazli tarzda ifodalanganligi bilan birga, bular orqali itning hayot tarzi naqadar og‘irligi hamda uning salbiy xarakter kasb etishi iboralar asosida yoritilgan. Masalan, “*ichini it tirnamoq*” iborasida jonvorlarga xos bo‘lgan “tirnash” so‘zi metaforalashtirilgan frazema vazifasini bajarib kelgan va ruhiy azoblanish ma‘nosini berish uchun xizmat qilgan.

Xalqimizning kundalik turmush tarzida qadimdan ot muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli ham yilqichilikka va chorvachilikka oid bo‘lgan qator proverbial frazeologizmlar keng foydalaniladi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, “ot” zoonimi odatda “ulug‘vorlik, poklik hamda sadoqat” ramzi sifatida frazemalarda namoyon bo‘ladi. Masalan,

- Qopga solib ortsa, ot ko‘tara olmaydi [88, 12].
- Ot yigitning yo‘ldoshi [66, 14].
- Ot egasiga o‘xshaydi [130, 14].
- Ot tepkisini ot ko‘taradi [27, 14].
- Otning o‘limi - itning bayrami. [55, 15].
- Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t [44, 12].
- Ot o‘rnini toy bosadi... [105, 16].
- Ot olsang, ho‘kiz qorindan ol, ho‘kiz olsang, ot [14, 14]

- Eshak yiqitsa, tuyog‘ini to‘shaydi, Ot yiqisa, yolini to‘shaydi! [40, 14].
- Yolg‘iz otning changi chiqmaydi, Changi chiqsa-da, dong‘i chiqmaydi. [55, 14].
- Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi... [139, 14].
- Yomon ot – yomon ayolday gap! [125, 14]
- Otdan tushsa-da, uzangidan tushmadi [16, 13].

“Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘adai yelib o‘t, yomon ot – yomon ayolday gap, yolg‘iz otning changi chiqmaydi, changi chiqsa-da, dong‘i chiqmaydi, metaforaga asoslangan holatda “ot”ga xos xususiyatlar insonlarning xarakter xususiyatlariga aloqador tarzda ifodalangan bo‘lsa, “ot yigitning yo‘ldoshi, ot egasiga o‘xshaydi” shakllarida esa kundalik turmush tarzida uchrab turadigan holatlar proverbial birikma shakliga keltirilgan va “sadoqat” ramzi ifodasi sifatida izohlanib kelgan.

Mol – so‘zi ba‘zan o‘z ma‘nosida, ba‘zan ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan. “Mol, sigir” jonvorlari odatda salbiydan ko‘ra ko‘proq, ijobiy ma‘no yuklaydi iboralarga, sababi xo‘jalik hayotida bu jonvorlar turkiy xalqlar uchun foydaliligi bilan birga, ular boylik va qut-baraka ramzi sifatida katta hamaiyat kasb etsa, ularning “yuvoshlik, yumshoqlik” xususiyati xalq maqol va matallarida ko‘chma ma‘noda keng miqysoda ishlatiladi. Bundan tashqari boshqa ma‘nolarda ham ishlatiladi, buni Tog‘ay Murod asarlaridagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

- Mol egasiga o‘xshaydi [23, 14]. Xalq orasida uning yana bir shakli foydalaniladi “Ot egasiga o‘xshaydi” hamda bu “ot va mol” zoonimlari bu o‘rinda asosan, variantdoshlik xususiyatlari o‘rtaga chiqadi.
- Tanacha ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi! [86, 16].
- Tana buzoqni turqi, tuqqanidan tamg‘a [87, 15]. Bu proverbial birikma tilimizdagi boshqa variant ham xalq orasida faol tarzda qo‘llaniladi: Qazisan qatasan asl zotingga tortasan.
- Ot olsang, ho‘kiz qorindan ol, ho‘kiz olsang, ot [14, 14].
- Yigit boshi ikkita bo‘lmaguncha, moli ikkita bo‘lmaydi [46, 13].

Tuya - sharq xalqlari madaniy turmush-tarzida beqiyos o‘ringa egadir, shuning uchun ham xalqimiz hayotida ham “tuya” nomi ishtirok etgan bir qancha iboralar mavjud va ularda, ayniqsa, tuyaning “sabrlik va chidamlilik” kabi xususiyatlari e‘tirof etiladi. Tog‘ay Murod asarlarida quyidagicha ma‘nolarda qo‘llanilgan:

- Tuya ko‘rdingmi yo‘q [35, 15]. Turkiy xalqlar qadimdan qir-adirlar va cho‘l-biyobonlarda yashab, bunday maskanlarni gullatgan va rivojlantirgan xalq hisoblanadi, bunday og‘ir sharoitda qatnash uchun otlarga solishtirganda tuyalar ancha chidamli va kuchli hisoblanishgan. Bundan tashqari ot zoonimiga nisbatan ancha hajm jihatdan katta hisoblangan va bu xususiyati iboraga ko‘chgan holatda “Tuya ko‘rdingmi yo‘q” – paydo bo‘lgan. Tuyani kattaligi jihatdan ko‘rmaslik mumkin emas, ko‘chma ma‘noda faqatgina hamma haqiqatlarni ko‘rib turgan holatda ham, hech kim bu haqida gapirmasligi va shikoyat qilmasligiga nisbatan

foydalaniladi. Qizig‘i shundaki, ingliz tilida ham huddi shu ma‘noni beruvchi ibora faqat “tuya” o‘rnida “fil” foydalaniladi, ya’ni “*the elephant in the room*” bu ko‘rinib turganidek frazeologik birliklarda zoonim komponentlar hududiy kelib chiqishga qarab tanlanadi.

– Chibinday gapni tuyaday qilib gapiradi [155, 14]. Bu shaklda adabiy tilda deyarli nofaol tarzda qo‘llanilsa, uning ma‘nodoshi sifatida “Pashshadan fil yasamoq” shakli faol qo‘llaniladigan frazemadir. Tog‘ay Murod asarida shevaga xos xususiyatlarni ta’sirchan va obrazli qilib o‘quvchiga yetkazib berish maqsadida aynan shu shakldan foydalanilgan.

– Kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi [7, 14]. Bu proverbial birikmada shaxsning martabasi bilan bog‘liq bo‘lib, tuyadek maqomi va martabasi ko‘tarilsa ham, kelib chiqishi jihatdan yuqori toifa vakillari tomonida tahqirlanishga ishora qilingan. Boshqa ma’noda esa kambag‘al odam tuyaning ustida o‘tirsam ham uni muammolar topib kelishi aks etgan. D.Baxranovanning ilmiy ishida huddi shu ma‘noni aks ettiruvchi ispan xalq maqoli berilgan “Katta baliq to‘rga ilinishi qiyin” shaklida, hududiy jihatdan Ispaniya dengizga yaqin va baliqchilik, bizdagi dehqonchilik kabi ularda ota kasb hisoblanib, shu sababdan maqolga “baliq” zoonimi olingan [...3].

Qo‘y – mentalitetimizda, asosan, jannatdan tushgan rizq-nasiba sifatida ulug‘lanadi va uning “yuvvoshlik” xususiyati odatda ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Tog‘ay Murod asarlarida quyidagilar foydalanilgan.

– Semizlikni qo‘y ko‘taradi [289, 14].

– Otangga so‘yilgan kal uloq, senga-da bo‘ladi shul uloq. [69, 14].

Eshak – odatda “qaysarlik va ahmoqlik” ramzi sifatida bilinadi xalqimiz orasida. Tog‘ay Murod asarlarida ham shu ma’nolarda qo‘llaniladi.

– Eshakning qulog‘iga tanbur chertyapman [66, 14]. Bu maqolning variantdoshi sifatida “Eshakka yasin o‘qiyapmanmi?!” – keng qo‘llaniladi.

– Eshakni xizmati halol, o‘zi harom [152, 14].

– Eshak semirsa, oxurni bulg‘aydi [157, 14].

– Eshak yiqitsa, tuyog‘ini to‘shaydi, Ot yiqisa, yolini to‘shaydi! [40, 14].

– Hayvonni qancha tarbiya qilma, it bo‘ladi, eshak bo‘ladi, aslo odam bo‘lmaydi [124, 14].

Mushuk – odatada “muloyimlik” ramzi bilan birgalikda “go‘zallik” timsolini ham bildiradi.

– Mulla mushuk bo‘lib turmish [30, 14].

Parrandalar bilan aloqador bo‘lgan proverbial frazeologizmlar.

– Baxt qushi qo‘nmoq [5, 12].

– Gapimga tumshug‘ini tiqmasin [101, 16].

– Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi! [111, 12].

– Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan! [68, 16].

Yovvoyi hayvonlar ishtirokidagi frazemalar.

– Uyimizdan ilon chiqqanmi [48, 12].

- Tulki qiziga to‘y berdi [64, 14].
 - Yomon gap, raketadan oldin yuradi. Yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi [155, 14].
 - Baqa bo‘lib qoldi [15, 15].
- Hashoratlarga oid bo‘lgan frazeologizmlar.
- Bitiga olar emish [177, 14].
 - Chibin chaqqandayin ham bo‘lmaydi [128, 12].
 - Chibinday gapni tuyaday qilib gapiradi [155, 14].

MUHOKAMA. D.Baxranova va Z.Shirnazarovalarning zoonim komponentli birikmalari tasnifi ushbu tadqiqotimiz uchun asos vazifasini bajarib, ularning tasnifi asosida proverbial birikmalar va frazeologizmlar lingvokulturologik aspektda tahlil etildi. Guvohi bo‘lganimizdek, Tog‘ay Murod asarlarida zoonimlardan unumli foydalanilgan hamda uslubiy jihatdan ular asardagi emotsionallik va obrazlilikni oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA. Ko‘rinib turganidek, Tog‘ay Murod o‘z asarlarida zoonimik komponentli birliklarni unumli tarzda foydalangan. Zoonim komponentli frazeologik va proverbial birlikmalarda xalqning fikrlash tarzi, milliy madaniyati va qadriyatlarining aksini ko‘rish bilan birga, ularni lingvistik jihatdan o‘rganish orqali zoonimik birlikmalarning semantik, lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarini tilda aks etishini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar. Toshkent – 1998. B-7.
2. Baxronova D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari. Avtoref.dis...(PhD). – Toshkent, 2017.
3. Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy- madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Fil.fan.dok... dis. -Toshkent: “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2021. – B.172-173
4. Гутман Е.А. Использование определений для выявления семантики зоохарактеристик. Новосибирск, 1974. / Зооморфизмы в современном французском языке в сопоставлении с русским. / Е.А.Гутман, М.И.Черемисина // Академия наук СССР, Сибирское отделение, Институт истории, филологии и философии, Кафедра иностранных языков. – Новосибирск, «Наука», 1972.
5. Hakimova G.E. Zoonimik komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari. Toshkent – 2008. B-6.
6. Ismoilov.G‘. Zookomponentli frazeologik birlikmalarning etnomadaniy xususiyatlari. // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. №7. – Toshkent:2013.
7. Jumayeva.Z Frazeologik birliklarning semantic va lingvokulturologik tadqiqi. Avtoref.dis...(PhD). – Jizzah, 2021.

8. Латипов О.Ж. Анализ семантической структуры тематического пространства «домашние животные» в разносистемных языках (на материале русского и таджикского языков). Самарканд – 2014.
9. Лясота Ю.Л. Английская зоосемия. – Владивосток: 1984. С-116.
10. Rajabova.D Zoofrazeologizmlar orasidagi semantik munosabat. Toshkent – 2013.
11. Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
12. Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
13. Tog‘ay Murod “Momo yer qo‘shig‘i”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
14. Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
15. Tog‘ay Murod “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
16. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
17. Усмонова Ш.Лингвокултурология. – Тошкент, 2019. – Б.152.
18. Shirnazarova Z.A. Zoofrazeologizmlarning semantik xususiyatlari va lingvomadaniy tadqiqi. Termiz – 2023. 26-b.